Soatov Mirmuhsin Maxmatmurot o‘g‘li – assistent
Samarqand davlat tibbiyot universiteti (Samarqand, O‘zbekiston)

KURYERLARNING MEHNAT SHAROITINI GIGIYENIK BAHOLASH VA SOG‘LOMLASHTIRISH BO‘YICHA TAVSIYALAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kuryerlarning mehnat sharoitini gigiyenik tomondan baholash bilan birgalikda kuryerlar uchun sog‘lom va xavfsiz ish muhiti bo‘yicha taklif va tavsiyalar yoritib o‘tilgan. Bugungi kunga kelib dunyoning barcha mamlakatlarida kuryerlik kasbi aholiga tezkor xizmat ko‘rsatishning ajralmas tarmog‘i hisoblanadi. Ammo ushbu kasbda bir qancha salbiy gigiyenik omillarning ta’siri yuzaga chiqadi. Ushbu omillardan transport shovqini, atmosferaning ifloslanishi, haddan tashqari jismoniy yuklama, ob – havoning keskin o‘zgarib turishi, psixofiziologik o‘zgarishlar, noto‘g‘ri taqsimlangan ish rejimi, dam olishning notekis taqsimlanishi va boshqalar. Tadqiqotda ushbu ko‘rsatilgan omillarning kuryerlar organizmiga ta’siri tahlil qilinib, sog‘lomlashtirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *psixofiziologik yuklama, kuryer, jismoniy yuklama, sog‘liqni saqlash, profilaktika.*

Соатов Мирмухсин Махматмуротович – ассистент
Самаркандского государственного медицинского университета (Самарканд, Узбекистан)

ГИГИЕНИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА УСЛОВИЙ ТРУДА КУРЬЕРОВ И РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ИХ ОЗДОРОВЛЕНИЮ

Аннотация. *В данной статье наряду с гигиенической оценкой условий труда курьеров рассматриваются предложения и рекомендации по созданию для них здоровой и безопасной рабочей среды. В настоящее время профессия курьера является неотъемлемой частью системы оперативного обслуживания населения во всех странах мира. Однако в этой деятельности проявляется воздействие ряда неблагоприятных гигиенических факторов. К ним относятся транспортный шум, загрязнение атмосферы, чрезмерные физические нагрузки, резкие изменения погодных условий, психофизиологические напряжения, неправильно распределённый рабочий режим, неравномерное чередование труда и отдыха и другие. В исследовании проанализировано влияние указанных факторов на организм курьеров и представлены рекомендации по оздоровлению условий их труда.*

Ключевые слова: *психофизиологическая нагрузка, курьер, физическая нагрузка, здравоохранение, профилактика.*

Soatov Mirmuhsin Makhmatmurotovich – assistant
Samarkand State Medical University (Samarkand, Uzbekistan)

HYGIENIC ASSESSMENT OF COURIERS’ WORKING CONDITIONS AND RECOMMENDATIONS FOR HEALTH IMPROVEMENT

Annotation. *This article presents a hygienic assessment of couriers’ working conditions, along with proposals and recommendations for creating a healthy and safe work environment for them. Today, the courier profession has become an integral part of rapid service delivery systems worldwide. However, this occupation is associated with the impact of several adverse hygienic factors. These include traffic noise, air pollution, excessive physical workload, sudden weather changes, psychophysiological stress, irregular work schedules, and uneven rest distribution, among others. The study analyzes the effects of these factors on couriers’ health and provides recommendations for improving their working conditions.*

Keywords: *psychophysiological load, courier, physical workload, healthcare, prevention.*

Dolzarbligi. Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarda yetkazib berish xizmati (onlayn xizmat) tobora rivojlanib kengayib bormoqda. Ushbu o‘rinda kuryerlik xizmati ham rivojlanib hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bir tomondan kuryerlarning ish sharoiti ko‘p hollarda gigiyenik jihatdan me’yorlarga javob bermaydi. Kuryerlarning ish kunining uzoqligi ya’ni uzoq vaqt davomida ochiq havoda bo‘lishi, o‘zgaruvchan ob havo sharoitlari, shovqin, chang, stess omillari, transport oqimi va boshqa zararli omillar bilan kun davomida aloqada bo‘lishadi. Buning natijasida kuryerlar organizmida psixofiziologik va jismoniy charchash, nafas olish, yurak qon – tomir, tayanch – harakatlanish tizimining erta charchashiga olib keladi va ushbu tizim kasalliklarining erta rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

Kuryerlarning mehnat sharoitini baholash, profilaktik chora tadbirlarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish, imkon darajasida optimal, sog‘-

lom mehnat sharoitlari bilan ta'minlash, kasb kasalliklarining oldini olish va mehnat unumdorligini oshirish jihatdan anchagina dolzarb hisoblanadi. Binobarin ushbu mavzu kuryerlik sohasida faoliyat olib boruvchilar o'rtasida gigiyenik nazoratni kuchaytirish va optimal, sog'lom ish muhitini tashkil qilishda muhim ilmiy – amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi. Kuryerlarning mehnat sharoitini gigiyenik jihatdan baholash, organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash, mehnat jarayonini optimallashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot materiallari va usullari. Tadqiqot materiallari sifatida turli xildagi kuryerlik xizmatlarida (piyoda, velosiped, mototsikl va avtomobillar) faoliyat yuritayotgan ishchilarning mehnat sharoiti, sog'liq xolati, ish kuni tartibi, mehnat olib borish muhitiga oid ma'lumotlar olindi. Kuryerlarning ish kuni davomida uchraydigan har xil turdagi gigiyenik omillar – shovqin darajasi, mikroiqlim sharoiti, transport zichligi, changlanish miqdori hamda har xil psixofiziologik yuklamalar ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2025 – yil 18 – iyun №3631 sonli "Elektron tijoratda kuryerlik xizmati faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomini tasdiqlash to'g'risida" nizomidan materiallar sifatida foydalanildi.

Tadqiqot olib borishda quyidagi usullar qo'llanildi.

Gigiyenik kuzatuv usuli – ish joyi ya'ni tashqi muhit sharoitlarini o'lchash va ma'lumotlarni qayd qilish.

So'rovnoma usuli – kuryerlarning ish va dam olish rejimi, stress darajasi, sog'lig'idagi o'zgarishlar haqida ma'lumotlar yig'ish.

Tadqiqot natijasi. O'tkazilgan gigiyenik kuzatuvlar natijasida kuryerlarning mehnat sharoitlari bir qator noqulay va sog'liq uchun xavfli omillar bilan tavsiflanishi aniqlandi. Ayniqsa, ularning ish faoliyatining katta qismi – taxminan 70–80 % ochiq havoda, har xil ob - havo muhitlarida o'tishi mehnat gigiyenasining asosiy muammolaridan biri sifatida qayd etildi. Kuryerlar ish jarayonida quyosh nurlanishi, shamol, yog'ingarchilik, sovuq havo, changlanish, avtomobil gazlari va atmosferaning ifloslanishi kabi tashqi muhit omillarining doimiy ta'siriga duch keladilar.

Tadqiqot davomida olib borilgan kuzatuv va so'rovnomalar natijalari shuni ko'rsatdiki, yoz oylarida ochiq havoda faoliyat olib boruvchi kuryerlarning tana harorati me'yoriy fiziologik ko'rsatkichlardan o'rtacha 1–1,5°C ga yuqori bo'ladi. Bu holat asosan yuqori harorat, namlik va quyosh radiatsiyasining uzoq muddatli ta'siri bilan izohlanadi. Natijada organizmning issiqlik almashinuvi buziladi, suvsizlanish, charchoq, diqqatning pasayishi va yurak-qon tomir tizimiga yuklama ortadi.

Qish mavsumida esa kuryerlar sovuq, shamol va namlik ta'sirida tana haroratining o'rtacha 1°C gacha pasayishi, tananing periferik qismida joylashgan qon tomirlarda qon aylanishining sustlashuvi, sovuq urish va shamollash holatlarining ko'payishi bilan tavsiflanadi. Ayniqsa mototsikl va velosiped bilanfaoliyat yuritayotgan kuryerlar uchun bu xavf yanada yuqori bo'lib, sovuq havo oqimi tufayli termoregulyatsiya tizimi doimiy stress holatida ishlaydi.

Bundan tashqari, atmosferaning ifloslanishi, ayniqsa yirik shahar markazlarida, kuryerlarning nafas olish organlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Transport vositalarining chiqindi gazlari tarkibidagi uglerod oksidi, azot oksidlari, benzapiren kabi toksik moddalar kuryerlarning ish vaqtida nafas yo'llariga kirib, uzoq muddatli kasbiy xavf omiliga aylanadi.

Shunday qilib, olib borilgan gigiyenik kuzatuvlar kuryerlarning mehnat faoliyatida ekologik, iqlimiy va fiziologik omillar majmuasining sog'liqqa jiddiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Bu esa ularning mehnat sharoitini gigiyenik me'yorlarga moslashtirish, issiqlik va sovuqdan himoya qiluvchi kiyimlar, dam olish rejimi va mehnat yuklamasini optimallashtirish zarurligini ta'kidlaydi.

Tadqiqot davomida o'lchangan shovqin darajasi transport oqimi zich bo'lgan shahar yo'llarida o'rtacha 75–85 dB ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich O'zbekiston Respublikasining Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining Shaharsozlik norma va qoidalari ShNQ 2.01.08-24 «Shovqindan himoya» shaharsozlik normalari va qoidalari mehnat gigiyenasi me'yorlariga ko'ra ruxsat etilgan 70 dB darajasidan yuqori bo'lib, uzoq muddatli ta'sirda eshitish analizatori, asab tizimi va yurak-qon tomir tizimi faoliyatiga salbiy ta'siriga olib keladi. Shovqin manbalari sifatida avtomobil dvigatellari, signal chalishlar, tormoz tizimlari shovqini va ko'p hollarda notekis yo'l sathlari tufayli yuzaga keladigan tebranishlar qayd etildi.

Doimiy shovqin ta'siri ostida ishlovchi kuryerlarda diqqatning pasayishi, bosh og'rishi, eshitish sezuvchanligining kamayishi, asabiylashuv va charchoq holatlari kuzatildi. Bundan tashqari, transport vositalarini boshqarish jarayonida shovqinning yuqoriligi psixofiziologik stressni kuchaytirib, ish unumdorligini kamaytiradi va e'tibor susayishi oqibatida yo'l-transport hodisalari xavfini oshiradi.

Kuryerlarning orasida asosan velokuryerlar va motokuryerlar orasida mushak-skelet tizimi zo'riqishi va surunkali charchash holatlari keng tarqalganligi aniqlandi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, ushbu guruh vakillarining 60% ida bel, bo'yin, yelka hamda tizza sohalarida og'riq va mushak zo'riqishi belgilari mavjud. Buning asosiy sababi – bir xil holatda uzoq vaqt transport vositasini boshqarish, yuk tashish, notekis yo'llarda harakatlanish va dam olish uchun yetarli tanaffuslarning yo'qligidir.

So'rovnoma natijalari ham bu kuzatuvlarni tasdiqlaydi: kuryerlarning 55% ida bel og'rishi, 40% ida esa uyqusizlik, kuchli stress, asabiylik va charchash holatlari kuzatilgan. Ayrim hollarda bosh aylanishi, yurak urish tezlashuvi va qon bosimining

o‘zgarishi kabi vegetativ buzilishlar qayd etildi. Uzoq muddatli psixofiziologik zo‘riqish esa ularning ish unumdorligi, diqqat jamlashi va xavfsiz harakatlanish qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shuningdek, kuryerlarning ish faoliyatida tana holatini o‘zgartirmasdan uzoq vaqt transport vositasida o‘tirish**,** notekis yo‘llarda harakatlanish va og‘ir yuklarni ko‘tarish holatlari mushak-skelet tizimi uchun doimiy ortiqcha yuklamani keltirib chiqarmoqda. Bu esa uzoq muddatda skolioz, radikulit, bo‘g‘im og‘rishlari va osteoxondroz kabi kasbiy muammolarga olib kelishi mumkin.

Umuman olganda, olingan natijalar kuryerlarning mehnat sharoitida shovqin, mushak zo‘riqishi, stress va uyqusizlik kabi omillar kompleks tarzda ta’sir etib, ularning sog‘lig‘iga, ish unumdorligiga hamda psixofiziologik barqarorligiga sezilarli salbiy ta’sir ko‘rsatayotganini ko‘rsatdi. Shu bois bu holatni gigiyenik nazoratga olish va sog‘lomlashtirish chora-tadbirlarini joriy etish zarur.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, kuryerlarning ish jarayonida ish va dam olish rejimining buzilishi ularning sog‘lig‘iga eng muhim salbiy omillardan biri hisoblanadi. Ko‘pchilik kuryerlar kun davomida 8–10 soat, ba’zan esa undan ham ko‘proq vaqt harakatda bo‘ladilar, dam olish uchun esa yetarli tanaffus vaqtiga ega emaslar. Bu holat organizmning fiziologik imkoniyatlarini cheklaydi, surunkali charchash, uyqusizlik, diqqatning pasayishi va ish unumdorligining kamayishiga olib keladi.

Kuryerlarning ish faoliyati davomida muntazam jismoniy yuklama kuzatiladi. Uzoq masofalarga harakatlanish, yuklarni ko‘tarish, transport vositalarini boshqarish natijasida mushak – skelet tizimi, ayniqsa bel, bo‘yin va oyoq mushaklari ortiqcha zo‘riqishga duch keladi. Dam olishning to‘liq yo‘qligi esa bu zo‘riqishni bartaraf etish imkonini bermaydi va natijada mushaklarda og‘riq, spazm, qon aylanish buzilishi kabi belgilar paydo bo‘ladi.

Shuningdek, kuryerlarning ko‘pchiligi ish jarayonida to‘g‘ri ovqatlanish tartibiga rioya qilmasligi, kunlik kaloriyaga bo‘lgan ehtiyojni to‘liq qoplay olmasligi aniqlangan. Ularning aksariyati tez tayyorlanadigan, gigiyenik talablarga to‘liq javob bermaydigan ovqatlar bilan cheklanadilar. Bu esa ovqat hazm qilish tizimi buzilishi, modda almashinuvi izdan chiqishi va immunitetning pasayishiga sabab bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari shuningdek, psixofiziologik yuklamaning yuqori darajada ekanligini ham ko‘rsatdi. Kuryerlar doimiy ravishda vaqt bilan bog‘liq bosim, mijozlar bilan muloqotdagi stress, transport tirbandliklari va notinch shahar shovqini ta’sirida ishlaydilar. Bu omillar ularning asabiy holati, ruhiy barqarorligi va diqqat jamlash qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, maxsus himoya vositalarining yetishmasligi (masalan, yengil, nafas oluvchi kiyimlar, yomg‘irpo‘shlar, qo‘lqoplar, shovqinga qarshi quloqchinlar va tibbiy niqoblar) kuryerlarning tashqi muhit ta’siridan himoyalanish imkoniyatini cheklaydi. Ergonomik talablarga javob bermaydigan transport vositalari (qulay o‘rindiq, amortizatsiya tizimi yoki shamollatishning yo‘qligi) esa mushak-skelet tizimiga ortiqcha yuklama beradi va harakat paytida noqulaylik tug‘diradi.

Ushbu omillarning majmuaviy ta’siri kuryerlarning umumiy sog‘lig‘ini yomonlashtirib, ularni kasbiy charchash, asabiy-ruhiy buzilishlar, yurak-qon tomir va tayanch-harakat tizimi kasalliklari rivojlanish xavfiga olib keladi. Shu bois, ish jarayonini gigiyenik me’yorlarga muvofiq tashkil etish, dam olish rejimini optimallashtirish, to‘g‘ri ovqatlanish va himoya vositalari bilan ta’minlash kuryerlarning mehnat sharoitini sog‘lomlashtirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ko‘rib chiqilgan natijalarga asoslanib kuryerlar uchun quyidagi sog‘lomlashtirish chora tadbirlarini tavsiya qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

- yengil, shamollatish xususiyati yaxshi, havo o‘tkazuvchanligi yaxshi bo‘lgan kiyimlar;
- ish kuni va dam olish tartibini gigiyenik normalarga asoslangan holda normallashtirish;
- psixologik dam olish mashg‘ulotlarini ishlab chiqish va joriy qilish;
- har kvartal bo‘yicha davriy tibbiy ko‘riklardan o‘tishni tashkil qilish;
- shaxsiy himoya vositalari (qo‘lqop, shlem, quloqchin) dan foydalanish.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, shahar sharoitida faoliyat yurituvchi kuryerlarning mehnat sharoiti ko‘plab gigiyenik va psixofiziologik omillar ta’sirida shakllanadi. Ularning ish jarayonida shovqin darajasi me’yorlardan yuqori bo‘lib, bu eshitish faoliyatiga, asab tizimiga va ish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Uzoq vaqt davomida harakatda bo‘lish, to‘g‘ri dam olmaslik, ovqatlanish rejimining buzilishi va stress omillarining ko‘pligi natijasida kuryerlarning katta qismida mushak-skelet tizimi kasalliklari, surunkali charchoq, uyqusizlik va psixoemotsional zo‘riqish holatlari aniqlangan.

Shuningdek, mehnat jarayonida ergonomik jihatdan noqulay transport vositalaridan foydalanish va himoya vositalarining yetarli emasligi ularning sog‘lig‘iga qo‘shimcha xavf tug‘diradi. Shuning uchun kuryerlar mehnat gigiyenasini yaxshilash maqsadida ish vaqtini tartibga solish, dam olish sharoitlarini yaratish, ergonomik transport vositalaridan foydalanish va psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini joriy etish zarur.

Umuman olganda, kuryerlik faoliyatida gigiyenik xavfsizlikni ta’minlash, mehnat sharoitlarini optimallashtirish va profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish ishchi salomatligini saqlash va ish unumdorligini oshirishning muhim omillaridan biridir.

ADABIYOTLAR

1. https://lex.uz/docs/-7587377
2. Rakhmatov, Sh. Sh., & Ganiyev, I. I. (2020). Urban transport noise and its impact on human health. *Tibbiyot va Ekologiya*, (3).
3. World Health Organization. (2021). *Occupational health: A manual for primary health care workers*. Geneva: WHO.
4. International Labour Organization. (20 20). *Decent work and occupational safety in delivery services*. Geneva: ILO.
5. Соатов М.М. 2025. Аҳоли яшаш минтақасида мактабгача таълим муассасаларини жойлаштиришнинг гигиеник таҳлили. Журнал гуманитарных и естественных наук. 1, 20 (апр. 2025), 141–143.
6. Soatov, M. M. (2025). Hygienic analysis of indicators of physical development of preschool children. Журнал гуманитарных и естественных наук, (20), 63-67.
7. Soatov, M. M. (2025). Hygienic analysis of the daily routine of preschoolers. Журнал гуманитарных и естественных наук, (20), 60-62.
8. Bakirov Asadullo Abdiqodirovich. (2024). Teri leyshmaniozining epidemiologik xususiyatlari va uning oldini olish chora-tadbirlarini takomillashtirish . TADQIQOTLAR.UZ, 48(1), 18-22.
9. Бакиров, А. А., & Зайдуллаева, М. О. (2025). Роль правил гигиены детей школьного возраста в борьбе с вирусным гепатитом а. *Вестник Ассоциации Пульмонологов Центральной Азии*, *8*(3), 274–276. извлечено от https://journals.tnmu.uz/index.php/bapca/article/view/1626
10. Бакиров , А. А., & Каллиева, Т. А. (2025). Паразитарные инфекции у детей и их влияние на организм ребенка. *Вестник Ассоциации Пульмонологов Центральной Азии*, *8*(3), 264–266. извлечено от https://journals.tnmu.uz/index.php/bapca/article/view/1623
11. Бакиров А.А. (2025). Меры борьбы с туберкулезом и эпидемиологический контроль за заболеванием. *Вестник Ассоциации Пульмонологов Центральной Азии*, *9*(4), 78–82. извлечено от https://journals.tnmu.uz/index.php/bapca/article/view/1992
12. Berdiyarova, Sh. Sh., & Bakirov, A. A. (2024). Respiratory Organs Clinical Laboratory Diagnostics: Literature Review. Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nursing, 2(10), 154–161.
13. Bakirov, A. A. (2024). Epidemiology of Hymenolepidosis and Improvement of Its Prophylaxis Measures. Journal of New Century Innovations, 64 (2), 107–110.
14. Bakirov A.A. / 2024 -yilda Samarqand viloyatida mehnat migrantlari orasida OITV infeksiyasi tarqalishini tahlil qilish Вестник Ассоциации Пульмонологов Центральной Азии ВЫПУСК 3 (№8) 2025 год https://tbcenter.uz/ 225-228.
15. Маматкулов, Т. Т., & Атаханова, Д. О. (2025). Коклюш: причины, распространение и основные направления профилактики. *Вестник Ассоциации Пульмонологов Центральной Азии*, *8*(3), 258–260. извлечено от https://journals.tnmu.uz/index.php/bapca/article/view/1621
16. Маматкулов , Т. Т., & Коянбаева, С. К. (2025). Распространение энтеробиоза среди детей и эффективные методы борьбы с ним. *Вестник Ассоциации Пульмонологов Центральной Азии*, *8*(3), 271–273. извлечено от https://journals.tnmu.uz/index.php/bapca/article/view/1625
17. Ibragimov P.S. (2025). Prevention, outcome, treatment and preventive measures brucellosis diseases in uzbekistan. Вестник Ассоциации Пульмонологов Центральной Азии, 9(4), 125–127. извлечено от https://journals.tnmu.uz/index.php/bapca/article/view/2001
18. Ибрагимов, П. С. (2025). Распространение и профилактика воздушно-капельных инфекций среди детей. Вестник Ассоциации Пульмонологов Центральной Азии, 8(3), 267–270. извлечено от https://journals.tnmu.uz/index.php/bapca/article/view/1624
19. Sobirovich, I. P. . (2025). Профилактика, исход, лечение и меры предупреждения заболевания бруцеллезом в узбекистане. Scientific journal of applied and medical sciences, 4(1), 116–121. Retrieved from https://sciencebox.uz/index.php/amaltibbiyot/article/view/13066
20. Sobirovich, I. P. . (2025). Brusellyoz kasalligida epidemiologik nazorat va profilaktik chora – tadbirlar tizimi. Scientific journal of applied and medical sciences, 4(1), 150–155. Retrieved from https://sciencebox.uz/index.php/amaltibbiyot/article/view/13071
21. O'zbekistonda sil kasalligining epidemiologik nazoratini takomillashtirish IP Sobirovich - Tadqiqotlar. uz, 2024
22. O'zbekistonda brutsellyozning epidemiologik xususiyat-larini o'rganish va epidemiologik nazoratini takomil-lashtirish P Sobirovich - Journal of New Century Innovations, 2024
23. O'zbekistonda brutsellyoz kasaligining profilaktikasi, kasallik oqibati, davolash va kasalikni oldini olish chora tadbirlari-TADQIQOTLAR IP Sobirovich, KN Jamoliddinovna - Uz, 2024
24. Мамедов С.М., & Рахманова Ж.А. (2025). Социально-экономические факторы, влияющие на распространение вич. Вестник Ассоциации Пульмонологов Центральной Азии, 9(4), 60–62. извлечено от https://journals.tnmu.uz/index.php/bapca/article/view/1988
25. Мамедов, С. М. (2025). Влияние антиретровирусной терапии на продолжительность и качество жизни пациентов, живущих с вич. Вестник Ассоциации Пульмонологов Центральной Азии, 8(3), 242–244. извлечено от https://journals.tnmu.uz/index.php/bapca/article/view/1617

26. Мамедов, С. М. (2025). Серодискордантные пары и профилактика передачи вич и улучшение качества жизни. Вестник Ассоциации Пульмонологов Центральной Азии, 8(3), 277–280. извлечено от https://journals.tnmu.uz/index.php/bapca/article/view/1627

27. Мамедов, С. М. (2025). Значение профилактических программ в снижении уровня заболеваемости вич среди молодежи. Вестник Ассоциации Пульмонологов Центральной Азии, 8(3), 249–251. извлечено от https://journals.tnmu.uz/index.php/bapca/article/view/1619

28. Мамедов С.М., & Рахманова Ж.А. (2025). Современные модели эпиднадзора за вич-инфекцией: опыт разных стран и перспективы внедрения. Вестник Ассоциации Пульмонологов Центральной Азии, 9(4), 74–77. извлечено от https://journals.tnmu.uz/index.php/bapca/article/view/19

29. Soatov, M. M. o‘g‘li. (2025). Savdo do‘konlariga qo‘yiladigan gigiyenik talablar. Вестник Ассоциации Пульмонологов Центральной Азии, 8(3), 230–232. извлечено от https://journals.tnmu.uz/index.php/bapca/article/view/1613

30. Soatov, M. M. o‘g‘li. (2025). Pestidsidlar bilan ishlovchilarda mehnat sharoitining gigiyenik tahlili. Вестник Ассоциации Пульмонологов Центральной Азии, 8(3), 233–235. извлечено от https://journals.tnmu.uz/index.php/bapca/article/view/1614

31. Soatov, M. M. o‘g‘li. (2025). Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi hodimlari mehnat sharoiti gigiyenasi (dezinfeksiya bo‘limi misolida). Вестник Ассоциации Пульмонологов Центральной Азии, 8(3), 239–241. извлечено от https://journals.tnmu.uz/index.php/bapca/article/view/1616

32. Соатов М.М. 2025. Аҳоли яшаш минтақасида мактабгача таълим муассасаларини жойлаштиришнинг гигиеник таҳлили. Журнал гуманитарных и естественных наук. 1, 20 (апр. 2025), 141–143.

33. Soatov M.M. 2025. Hygienic analysis of the daily routine of preschoolers. Журнал гуманитарных и естественных наук. 1, 20 (апр. 2025), 60–62.

34. Soatov M.M. 2025. Analysis of the health condition of preschool children. Журнал гуманитарных и естественных наук. 1, 20 (апр. 2025), 47–49.

35. Soatov M.M. 2025. Hygienic analysis of indicators of physical development of preschool children. Журнал гуманитарных и естественных наук. 1, 20 (апр. 2025), 63–67.